

**QADIMGI SHARQ MADANIYATI QUCHOG'IDA O'ZBEK XALQ
CHOLG'ULARI SHAKLLANISHI**

Sobirov Otajon Zohidjon o'g'li

Annotatsiya

Ushbu maqolada qadimgi sharq madaniyati quchog'ida o'zbek xalq cholg'ulari shakllanishi va o'zbek xalqining beباho boyligi hisoblanmish - milliy musiqiy cholg'ularimiz o'zining betakrorligi, naqsh bezagining jozibadorligi, ovoz tarovatining rang-barangligi va ijro imkoniyatlarining beqiyosligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda alohida o'rin tutishi haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: cholg'u, milliy, qadriyat, asbob, soz, ijrochi, ijro, soz.

Аннотация

В данной статье рассматривается формирование узбекских народных инструментов в объятиях древней восточной культуры и бесценного богатства узбекского народа – национальных музыкальных инструментов, которые занимают особое место в нашей национальной музыкальной культуре благодаря своей самобытности, привлекательности узорного декора, разнообразию звучания и несравненным исполнительским возможностям.

Ключевые слова: инструмент, национальный, ценность, инструмент, музыка, исполнитель, исполнение, музыка.

Abstract

This article discusses the formation of Uzbek folk instruments in the embrace of ancient Eastern culture and the invaluable wealth of the Uzbek people - our national musical instruments, which occupy a special place in our national musical culture with their uniqueness, attractiveness of pattern decoration, diversity of sound and incomparable performance capabilities.

Keywords: instrument, national, value, instrument, music, performer, performance, music.

KIRISH

Mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldag'i PQ-112-soni qarorida musiqiy madaniyatni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamlili chora-tadbirlar belgilangan. Jumladan, umumiyl o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarga milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko'nikmalarini shakllantirish choralarini

ko‘zda tutilgan¹. Bunday amaliyot, nafaqat o‘quvchilarning estetik tarbiyasini kuchaytiradi, balki ularni milliy musiqiy merosga hurmat ruhida tarbiyalaydi.

Musiqa darslari haftasiga bir soat o‘tkazilishi bilan birga, unga qo‘sishimcha ravishda amaliy mashg‘ulotlar, ya’ni fakultativ va to‘garaklar shaklida tashkil etilishi nazarda tutilgan². Bu esa o‘quvchilarning ijrochilik qobiliyatini oshirish va musiqaga nisbatan barqaror qiziqish uyg‘otishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston davlat filarmoniyasi va uning hududiy bo‘limlari tomonidan lektoriy konsertlarini o‘tkazish tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Bu konsertlar orqali yoshlarning musiqiy savodxonligi va madaniy didini rivojlantirish ko‘zda tutiladi³. Ushbu konsertlarning o‘tkazilganligi haqidagi dalolatnomalar asosida, xarajatlar mahalliy byudjet yoki boshqa qonunchilikda taqiqilanmagan manbalar hisobidan qoplanadi⁴.

Shuningdek, qarorda milliy va zamonaviy musiqa janrlarida yangi asarlar yaratish, karaoke versiyalar tayyorlash va ularni xalq orasida ommalashtirish uchun davlat buyurtmalarini yo‘lga qo‘yish belgilangan⁵. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlarda eng ko‘p tomosha qilingan milliy musiqiy kliplar, qo‘shiqlar va kompozitsiyalar mualliflariga rag‘bat sifatida pul mukofotlari berilishi nazarda tutilgan⁶. Bunday mexanizm nafaqat iste’dodli san’atkorlarni rag‘batlantiradi, balki musiqiy kontent sifatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Qadimgi Sharq madaniyati quchog‘ida o‘zbek xalq cholg‘ulari shakllandi. Ular ko‘p asrlik taraqqiyot davomida o‘ziga xos xususiyatlarini tovush tusini saqlab qoldi. O‘ziga xos tuzilishi tufayli nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g‘ijjak, qobuzlar an’anaviy shakllarda bizgacha yetib kelgan⁷.

Quldarlik tuzumi davrida bizgacha yetib kelgan Marakand, Niso, Tuproq qalpa, Termiz va boshqa shaharlar mavjud edi. Ushbu shaharlar hududida olib borilgan qazilma ishlar chog‘ida badiiy xunarmandchilik buyumlari, turli xil cholg‘ularning tasvirlari topildi⁸. Quldarlik jamiyatni O‘rta Osiyo xalqlari madaniyati rivojida muhim bosqich bo‘ldi. Xalq musiqasi yanada yuksalishi bilan birga, cholg‘ular ham takomillashdi⁹.

Xalq cholg‘ulari O‘rta Osiyo aholisining turmushi va mehnat faoliyatiga singib, inson faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi¹⁰:

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldaggi PQ-112-sonli qarori, 1-ilova, 2-band.

² Ibid., 1-ilova, 3-band.

³ Ibid., 1-ilova, 6-band.

⁴ Ibid., 1-ilova, 6-band (oxirgi xatboshi).

⁵ Ibid., 1-ilova, 9-band.

⁶ Ibid., 1-ilova, 10-band.

⁷ Petrosyans, A.I. (1950). *Cholg‘ushunoslik*. Toshkent: Fan.

⁸ Arxeologik qazilmalar materiallari (Marakand, Niso, Termiz), 1955-1965 yillar

⁹ Saidov, R. (2010).

¹⁰ Mirzaev, S. (1998).

Bayramlarda, madaniy marosimlarda ayniqsa, karnay, surnay, doira, nog‘ora, chindoul kabi va urma zarbli musiqa cholg‘ulari keng qo‘llanilgan¹¹.

O‘rta Osiyo, O‘rta asr musiqa madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shunda ediki, cholg‘ular nafaqat bir necha turdagи musiqa asboblarini chalib bera olgan, balki o‘zlari ham musiqa bastalanganlar. Cholg‘ular o‘z davrining yetuk musiqachilari va shoirlari ham bo‘lishgan¹². O‘rta asr sharoitida musiqiy ixtisoslashuv maxsus musiqiy ustaxonalarni paydo bo‘lishiga olib keldi¹³. Bu yerda ustoz-shogirdga o‘rgatish an’analari qaror topib rivojlandi. Ayni paytda ansambl ijrochiligi takomillashdi, musiqa san’atining asosiy ko‘rinishlari shakllanib, cholg‘u asboblarining yangi namunalari kashf etilishi ham o‘sha uzoq davrlarga borib taqaladi¹⁴.

Sharq olimlarining nazariy qarashlari mavjud ijrochilik san’ati tajribasi asosida shakllangan bo‘lib, ular o‘z risolalarida musiqaning jamiyatda tutgan o‘rni va ahamiyati haqida atroflicha maolumot bergenlar. Farobiyning (873-950) «Katta musiqa kitobi» («Kitob al-musiqa alkobir»), Ibn Sinoning (980-1037) «Davolash kitobi» («Kitob ush shifo») komusidagi «Musiqa haqida risola» kitoblarida, Al-Xorazmiyning (X –asr) «Bilimlar kaliti», Jomiyning (1414-1492) «Musiqa haqida risola» kitoblarida musiqa ijrochiligi va xalq cholg‘ulari haqida muhim maolumotlar bayon etilgan. Safiuddin Urmaviyning (1216-1294) «Oliyjanoblik haqida kitob» yoki «Sharafiya kitobi» ayniqsa xalq cholg‘ulari Safiuddin Urmaviy isteododli ud cholg‘uchisi, xonanda, mashhur sozanda sifatida tanilgan. U Ozarbaydonning Urmiya shahrida tug‘ilgan. Safiuddinning eng katta yutug‘i lad («modus») larining mukammal sistemasini ishlab chiqqanligidadir. Ibn Zaylining (1044 yilda vafot etgan) «Musiqa haqida to‘liq kitob» («Kitob ul kabi fil-musiqiy») uning musiqa ilmidagi yagona va bebaho kitobidir. U yangi usulmi – musiqada ladlarni harflar bilan ifodalash usulini ishlab chiqdi.

Abduqodir Marog‘iy (XV-asr) Abduqodir ibn G‘oyibiy (Marog‘iy) Ozarbayjonning Marog‘ shahrida tug‘ilgan bo‘lsada, hayotining ikkinchi yarmi Temur saroyida – Samarcandda o‘tgan va Hirotda vafot etgan¹⁵. «Musiqa ilmida ohanglar to‘plami» («Jami al-alxan fi-ilm al-musiqiy») risolasida musiqa haqidagi ta’limotni – kamoncha, yetti torli g‘ijjak kabi bir turdagи musiqa cholg‘ulari borligi haqidagi maolumotlar bilan boyitdi¹⁶. Al-Husayynning (XV-asr) Musiqiy Kanonlarida asosan O‘rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan ikki torli musiqa cholg‘usi – dutor haqida maolumot berilgan¹⁷. Qutbiddin ali-Sheroziy (1236-1310) eronlik musiqa

¹¹ Nazarov, O. (2011).

¹² Karimov, M. (2005).

¹³ Belyayev, V.M. (1933).

¹⁴ Petrosyans, A.I. (1950).

¹⁵ Iskandarov, T. (2002). *Sharq musiqasi tarixi*. Toshkent: O‘zbekistan Milliy Universiteti Nashriyoti.

¹⁶ Mamedov, F. (1995). “Marog‘iy va uning musiqa ilmidagi roli”. *Sharqshunoslik Jurnalı*, 3, 45-53

¹⁷ Karimov, M. (2005). *O‘zbek xalq musiqasi tarixi*. Toshkent: Fan.

nazariyotchisi sifatida tanilgan bo‘lib, o‘z risolasida kamonchilik tanbur haqida ibratlari mulohazalar bildirgan hamda inson ovozini musiqa asboblari ichida eng yoqimlisi deb hisoblangan¹⁸. XVII-asrda yashagan Buxorolik musiqashunos Darvish Ali o‘z risolasidagi tanbur, konun, barbat, ud, rud, kobuz, g‘ijjak, shemane, ruxavza, kungura kabi musiqa cholg‘ulari batafsил maolumot bergen¹⁹.

Buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi xalq cholg‘ularini o‘rganish sohasida ham tarixiy qimmatga ega. Abu Nasr Muhammad Farobiyning mashhur asari – «Musiqa haqida katta kitob» («Kitob al-musiqa al-kabir») ulkan ahamiyatga ega²⁰. O‘rtta asr olimi bu kitobida ikki xil musiqa ijrochiligi: ohanggi inson ovozi (qo‘sish san’ati) va cholg‘ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi²¹. Forobiy mohir ijrochi sifatida musiqa cholg‘ularining jamiyat hayotidagi rolini o‘rganishga ahamiyat beradi va u: «... Jangu – jadallarda, raqlarda, to‘y-tomoshalarda, ko‘ngil ochar bazmlarda hamda ishq-muhabbat qo‘sishqlarini kuylashda chalinadigan o‘ziga xos cholg‘ular bor», deb yozgan edi²².

Shunday qilib, Sharqning ulug‘ allomasi musiqa ilmining bir bo‘limi sifatida cholg‘ularni o‘rganuvchi cholg‘ushunoslilik sohaga asos soldi. Bu soha keyinchalik boshqa olimlarning asarlarida ham keng boyitildi va rivojlantirildi²³.

Ansambl (frans. ensemble — birlik, uyg‘unlik, ohangdoshlik):

me’morlikda — bir kenglik mujas-samotiga ega bir-biriga mos binolar, inshootlar majmui;

musiqada: ma’lum musiqa asarlarining bir necha ijrochilar tomonidan birgalikda ijro etilishi; sozanda va ashulachilarining kichikroq to‘dasiga mo‘ljallangan musiqa asari. Opera, oratoriya va kantatalarda ham A. bo‘ladi. Ijrochilar soniga qarab A.lar duet (2 kishi), trio yoki ter-set (3 kishi), kvartet (4 kishi), kvintet (5 kishi), sekstet (6 kishi), septet (7 kishi), oktet (8 kishi), nonet (9 kishi) va hokazolarga bo‘linadi;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- a. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagи PQ-112-sonli qarori, 1-ilova, 2-band.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: SHarq, 1997. - 31-63 b.
3. Mirziyoev SH. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. – T.: O‘zbekiston, 2016. – B. 39-40.

¹⁸ Safarov, D. (2001). *Eron va O‘rtta Osiyo musiqa nazariyasi*. Toshkent: Sharq.

¹⁹ Nazarov, O. (2011). “XVII asr musiqashunosligi”. *O‘zbek Folklori*, 5, 44-52.

²⁰ Farobiy, A.N. (1989). *Kitob al-musiqa al-kabir* (Tarjima va sharhlari). Toshkent: Fan

²¹ Abdullayev, R. (2010). “Forobiy va musiqa ijrochiligi”. *Musiqashunoslilik Ilmi*, 4(2), 15-21

²² Farobiy, A.N. (1989).

²³ Safarov, D. (2001).

4. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda “Maktab ta’limini rivojlantirish umummilliy dasturi” doirasida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirish. – T.: 2005 y. B. 23-42.
5. Abdulin E.B. Teoriya muzыkaльnogo obrazovaniya. – M.: Akademiya, 2004. – 467 s.
6. Abdullaeva M.A. Oilada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish. Ped. fan. nom. ...dis. – T.: “Oila” ilmiy-amaliy markazi, 2009. -160 b.
7. Abdullaeva SH.SH. Pedagogicheskie texnologii razvitiya poznavatelъnyx tvorcheskix sposobnostey uchaщixsya mladshix klassov: Dis.... kan. ped. nauk. – T., 2005. -121s.
8. Agarbekkezi A. Professionalъno-pedagogicheskaya napravленность instrumentalъnoy podgotovki budushchegouchitelya k rabote muzыkaльnym materialom. Avtoreferat. – T.: 2001. 48 - b.
9. Azimov K. O‘zbek xalq cholg‘u asboblari havaskorlik orkestri bilan ishslash uslubiyati. – T., 2002. –B. 106.
10. Baxriev A. O‘quvchilarda milliy musiqiy tasavvurlarni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini rivojlantirish: Avtoreferat. – T., 2004. 234 - b.
11. Barenboym L. A. Muzыkaльnaya pedagogika i ispolnitelъstvo. –L., 1974.
12. “1-Bolajon” maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan davlat talablari asosida ishlab chiqilgan tayanch dastur. – T.: 2010 y.
13. Borovik T.A. Puti pedagogicheskogo tvorchestva. Muzыkaльnyu rukovoditelъ. — M.: OOO Izdatelъskiy dom “Vospitanie doshkolъnika”, 2004. №1. - s.9-25., №2. - s.18-33., №4. s.29-41., №5. - s. 23-28., №6. - s. 9-14.
14. Bochkarev L.L. Psixologiya muzыkaльnoy deyatelъnosti. – M., 1997